ADABIYOTSHUNOSLIK

UDK: 378.1.014.25 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a115**

BUYRUQ NUTQIY AKTINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОВЕЛИТЕЛЬНОГО РЕЧЕВОГО АКТА

LINGUOPRAGMATIC CHARACTERISTICS OF THE IMPERATIVE SPEECH ACT

Nasridinov Muxridin Vaslidin o‘g‘li[1]

[1]**Nasridinov Muxridin Vaslidin o‘g‘li** – Farg‘ona davlat universiteti “Ingliz tili kafedrasi” o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Maqolada tilshunoslarning til va nutq nazariyasi bo‘yicha qarashlari hamda zamonaviy tilshunoslikning asosiy sohalaridan biri bo‘lgan pragmatikadagi nutqiy akt funksiyalari va pragmatik kompetensiya kategoriyalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida buyruq nutqiy aktining kontekstdagi ko‘rinishlari tadqiq qilinadi. Shuningdek, maqolada buyruq nutqiy aktiga doir nazariy fikrlar badiiy asarlardan olingan misollar asosida tahlil qilinadi.

Аннотация

В статье рассматриваются взгляды лингвистов на теорию языка и речи, а также функции речевого акта в прагматике, которая является одним из основных направлений современного языкознания, и проводимые исследования категорий прагматической компетенции, исследуются в контексте повелителбного речевого акта. Также в статье анализируются теоретические представления о повелительном речевом акте на примерах, взятых из художественных произведений.

Abstract

In the article, the views of linguists on the theory of language and speech, as well as the functions of the speech act in pragmatics, which is one of the main fields of modern linguistics, and the research conducted on the categories of pragmatic competence, are researched into the context of the imperative speech act. Also, the article analyzes theoretical ideas about the imperative speech act based on examples taken from works of art.

Kalit so‘zlar*: pragmalingvistika, pragmatik kompetensiya, nutqiy akt, buyruq nutqiy akti, kontekst*

Ключевые слова*: прагмалингвистика, прагматическая компетенция, речевой акт, повелительно-речевой акт, контекст.*

Key words*: pragmalinguistics, pragmatic competence, speech act, imperative speech act, context*

KIRISH

Jamiyat doimiy harakatda bo‘lgan jarayon bo‘lib, u doim rivojlanadi, o‘zgaradi, yangidan yangi ko‘nikmalarni o‘zida namoyon etadi. Davrlar osha jamiyatda kuzatilgan har qanday o‘zgarishlar til bilan chambarchas bog‘langan holda sodir bo‘ladi. Jamiyat o‘rtasida aloqa vositasi hisoblangan til insonlarning xabar almashuv jarayonida turli xil kuchli va kuchsiz psixologik jarayonlar yuzaga chiqishiga sabab bo‘ladi. Ushbu jarayonlarning tilshunoslar tomonidan tadqiq etilishi ilk bor F.Sossyur tomonidan tilni nutqdan farqlash nazariyasi fanga olib kirilishi orqali yangi bosqichga ko‘tarilgan. Muloqotning samaradorligi adressant ongidagi maqsadni tinglovchi tafakkurida mukammal namoyon etishi bilan belgilanadi. Tafakkur esa til bilan chambarchas bog‘liqligi va ularni bir biridan mutlaqo ajratib bo‘lmasligini XIX asr nemis tilshunosi V.F.Gumboldt antinomiyalari orqali o‘z ilmiy nazariyalarida mukammal yoritib bergan [11]. Yuqoridagi fikrlar shuni ko‘rsatadiki, tilshunoslikda inson nutqiy faoliyati bilan birga uning psixologik ta’sirini ham o‘rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Inson nutqiy faoliyati bilan bog‘liq barcha masalalar zamonaviy tilshunoslikning ekstralingvistika, intralingvistika, va komparalingvistika tarmoqlarida o‘rganiladi. Ushbu lingvistik sohalarda insonning fikri bilan birga uning ruhiy olami ham o‘z ifodasini topadi [6.25]. Til taraqqiyotida olimlar tomonidan turlicha qarashlar, faktlar va masalalar munozara maydoniga chiqadi. Tilga semiotik yondashuv natijasi esa pragmalingvistika sohasini vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. “Pragmatika” termini tilshunoslikning semiotika sohasi bo‘yicha mutaxassislari hisoblangan Ch.Morris, C.Pirslar tomonidan yangi bosqichga ko‘tarildi [6.119]. Pragmalingvistika sohasining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan nutqiy akt nazariyasining mantiqiy-falsafiy qarashlariga oid tadqiqotlar XX asrning 60-70-yillarida J.Ostin, J.Serl, Z.Vendler kabi olimlar tomonidan lingvopragmatikaning

muhim muammosi sifatida qarala boshlandi. Ushbu sohaga oid turli xil umumiy nazariy ma'lumotlar V.Gumboldt, L.Byuller, C.Karsevskiy, E.Banvennist, M.Baxtin, Sh.Balli, P.Yakubinskiy kabi tilshunoslar tadqiqotlarida uchraydi. Nutqiy akt nazariyasi muammolari nafaqat tilshunoslar o'rtasida balki sotsiolog, psixolog, falsafa hamda mantiqshunos kabi soha vakillari o'rtasida ham munozarali masalalardan biri hisoblanadi [6.122]. Kommunikativ nutq jarayonida ifoda etadigan vazifasiga ko'ra nutqiy akt adressant tomonidan adressatga turli belgilar va intonatsiyalar orqali darak, so'roq yoki buyruq kabi maqsadlarini bayon etadi. Ushbu jarayonning aniq va mukammal tarzdagi ijrosi, nutqiy aktlarni mohirona lokutiv jarayonga olib kirilishi **pragmatik kompetensiya** normalariga qay darajada amal qilinishiga bog'liqdir. Pragmatik kompetensiya - bu kommunikativ nutq a'zolarining kontekst xususiyatlarini inobatga olgan holda tildan o'sha jamiyatga tegishli ijtimoiy-madaniy omillarga amal qilish asosida foydalanish bo'yicha qoidalar to'plamidir [2. 21]. Ushbu soha so'zlovchining nutq harakatini tushunish va shakllantirish usulini belgilaydigan muvofiqlik va xushmuomalalik qoidalarini bilishi va ulardan foydalanish ko'nikmalaridir [1.11].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

So'zlovchi muloqot jarayonida tilning ijtimoiy-madaniy me'yorlari hamda qoidalarini hisobga olishi lozim. Notiqning til imkoniyatlaridan samarali tarzda, konteksga mos ravishda qo'llay olishi kabi masalalar pragmatik kompetensiya atamasi bilan bog'liqdir. Aynan, pragmatik kompetensiyaning ijtimoiy normalari va kontekst nuqtai nazardan to'g'ri foydalanish tarkibiy qismlari mashhur amerikalik olim M.C.Mursiya tomonidan quyidagicha uch omil (*ijtimoiy kontekst omillari, stilistik muvofiqlik, etnik-madaniy omillar*) bilan izohlangan[10.41]:

1. *Ijtimoiy kontekst omillari.* (Social contextual factors) Murojaat qiluvchi shaxs muloqot jarayonida tinglovchining yoshi, jinsi, maqomi, jamiyatdagi o'rni, mavqei kabi omillar nuqtai nazardan kelib chiqqan holda to'g'ri funksiyalar pozitsiyasini tanlash, grammatik, sintaktik, semantik jihatdan to'g'ri bo'lishi va intonatsiyani o'rinli qo'ya olish qobiliyatini talab etadi. Ushbu omilda so'zlovchi tomonidan bayon etilgan nutqiy aktni munosib qo'llanilganligi nafaqat til birliklaridan mukammal foydalana olishga, balki adressantning jamiyatdagi mavqeiga ham bog'liqdir. Misol uchun, *yosh* nuqtayi nazardan quyidagi misollarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

- Bolalaringni o'ylasangchi, tentak!

- Bolalarimni deb shu ahvolga tushib o'tiribman-da.

- Gapirmaysanmi? Bo'lmasa men ketdim, bor, bilganlaringni qillaring. Nima mening boshqa tashvishim yo'qmi?

- O'tiring, aka, sal o'zimni bosib olay, o'tiring.[4.63].

Asardan olingan ushbu parchada ikki shaxs (aka va singil) o'rtasidagi kommunikativ jarayon hisoblanadi. Nutq egalari yosh jihatdan turli darajada ekanligi sabab, buyruq nutqiy akt elementlaridan turlicha foydalaniladi. Ya'ni, yoshi kichik shaxs kattaga nisbatan "hurmat" konsepti doirasida ishlatiladigan til birliklari va intonatsiyadan foydalangan bo'lsa, yoshi katta adressant (aka) esa nisbatan erkin muloqotda bo'ladi. Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik kommunikativ jarayonning buzilishiga olib keladi.

Ijtimoiy kontekst omili elementlaridan biri hisoblangan *turli jins* o'rtasidagi illokutiv nutqiy akt ko'rinishi ham bir-biridan farq qiladi. Amerikalik olim M.Vud tomonidan turli gender o'rtasida o'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, nutqiy akt jarayonida ayol jinsiga mansub so'zlovchi illokutiv maqsadni bayon etishda ko'proq hissiyotlari(emotsiya) bilan birga ifoda etadi. Bu esa buyruq nutqiy akti erkak gender tomonidan aniq va to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilsa, ayol kishida nutqiy akt emotsiyalarga boy bo'lishini ko'rsatadi [9.75].

a) Ota: Qo'y bunaqa gaplaringni o'g'lim. Yosh bola emassan, endi hayotga ko'zingni kattaroq ochib qaraydigan payting keldi.

b) Ona: Yig'lama, - dedi o'ng qo'li bilan boshim aralash yelkamni silab. O'zingni qo'lga ol, toylog'im! [4. 87,39]

Yuqoridagi asardan olingan misollarda ota-ona (qarama-qarshi gender) tomonidan farzandiga qarata aytilgan buyruq nutqiy aktlaridan ko'rinadiki, birinchi misolga (*Qo'y bunaqa gaplaringni o'g'lim*) qaraganda ikkinchi ayol tomonidan ifodalangan illokutiv nutqiy akt (*O'zingni qo'lga ol, toylog'im!*) emotsiyaga boy tarzda tinglovchiga bayon etilgan.

*Ijtimoiy mavqe*_(social status): Kommunikativ nutq jarayonida adressant va adressat o‘rtasida ijtimoiy mavqei nutqiy akt ijrosida uning sintaktik, semantik, grammatik jihatdan va hatto intonatsiyani to‘g‘ri qo‘llay bilish ko‘nikmalarini talab etadi [12.370].

“Ishimiz o‘ngidan keldi. Navbatda turgan melisa hammahallamiz Turob aka ekan. Bozorvoy cho‘ntagingni kavlama, xafa qilaman! Turob aka “xafa qilaman„ degan so‘zlarni xuddi peshonangdan otib tashlayman, degandek bir ohangda aytdi” [4. 99].

Illokutiv nutqiy akt egasi mavqe jihatdan kontekstda tinglovchidan yuqori ekanligi, unga keskin buyruq va yuqori kuchli ohangda urg‘u berish imkonini yaratadi. Ushbu kontekstda ishtirok etgan tinglovchi shaxs o‘zidan mavqe jihatdan yuqori shaxsga buyruq emas, iltimos nutqiy akt mezonlaridan foydalanadi yoki buyruq nutqiy aktining xushmuomilalik elementlariga rioya qilgan holda murojat etadi.

*Ijtimoiy masofa*_(social distance) adressant va adressat o‘rtasida amalga oshiriladigan buyruq nutqiy aktlari ijrosida muhim ahamiyatga egadir. Murojaat qiluvchi shaxs tinglovchi bilan bir-biriga psixologik yaqinlik yoki ijtimoiy masofaga bog‘liq ravishda xushmuomalalik kategoriyalariga mos nutqni tanlashi zarur. Ingliz olimi J.Stilvel o‘z tadqiqotlarida adressant tomonidan yuborilgan nutqiy aktni xushmuomalalik kategoriyasiga asosan *ijobiy xushmuomalalik* va *salbiy xushmuomalalik* turlarga ajratgan [7.20].

a) Tuzni menga uzatib yubor.

b) Tuzni menga uzatib bera olasizmi, iltimos! [7.63].

Birinchi misolda berilgan buyruq illokutiv nutqiy akti so‘zlovchiga ijtimoiy psixologik yaqin insoniga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa, ikkinchi misol esa ijtimoiy masofa mavjud shaxsga nisbatan qo‘llanilgan.

2.Stilistik muvofiqlik (Stylistic appropriateness): Ushbu omilda inson psixologiyasining asosiy sohasi hisoblangan xushmuomalalik elementlaridan to‘g‘ri foydalana olish, vaziyat nuqtai nazardan munosibini tanlay bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Stilistik muvofiqlik suhbat jarayonida ijtimoiy kontekst omillariga bog‘liq holatda tinglovchiga nisbasan rasmiy yoki norasmiy ravishda me‘yoriy chegara belgilagan tarzda maqsadni bayon etishni talab etadi.

“- Professor Sherzodga qarab yana jilmaydi: -Sizga bir maslahat: ko‘p kuyunchak bo‘lavermang!. Yurak kasalligi aksariyat ikir-chikir tashvishlardan kelib chiqadi„

Yuqorida qayd etilgan misolimizda ham kontekstdagi barcha omillar va elementlarni hisobga olgan holda buyruq (*ko‘p kuyunchak bo‘lavermang!*) illokutiv nutqiy akti iltimos yoki kuchli buyruq shaklida emas, balki maslahat ma’nosida tinglovchiga bayon etish uslubi tanlangan.

3. Etnik-madaniy omillar (Cultural factors). Ma’lum bir til doirasida unga tegishli bo‘lgan xalq va jamiyat an’analari, urf-odatlari nuqtai nazaridan kerakli so‘z, ibora va gaplardan to‘gri foydalangan tarzda nutqiy aktni shakllantirish lozim. Misol uchun, o‘zbek, rus, nemis kabi tillarda ikkinchi shaxs birlik olmoshining ikki xil ko‘rinishi, ya’ni sen(sen\ты\du) va siz(siz\вы\Sie) shakllari va ulardan foydalanish bo‘yicha etnik-madaniyat qonun-qoidalari mavjud bo‘lsa, ingliz tilida har ikkisi faqatgina bir olmosh(you) orqali ifodalanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, pragmalingvistikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan pragmatik kompetensiya tilshunoslik fani taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, buyruq nutqiy aktini adressatga yo‘naltirishda bevosita, bilvosita, xushmuomilalik elementlariga asosan to‘g‘ri variantini qo‘llay bilishda pragmatik kompetensiyani tavsiflovchi M.C.Mursiya tomonidan fanga olib kirilgan omillar (*ijtimoiy kontekst omillari, stilistik muvofiqlik, etnik-madaniy omillar*)ning o‘rni beqiyosdir. Kommunikativ jarayonda hosil bo‘lgan nutqiy akt kontekst bilan uzviy bog‘liqligi holda pragmalingvistikaning eng asosiy o‘rganish obyektlaridani biri sanalib, u strukturalizmdan keyingi bosqichda shakllangan antroposentrik nazariyasining rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dale April Koike *The Modern Language Journal*, Vol. 73, No. 3 (Autumn, 1989), pp. 279-289 (11 pages)
2. Discourse and context in language teaching. A guide for language teachers.
3. Marianne Celce-Murcia Elite Olshtain. Cambridge university press.
4. MUNGLI KO‘ZLAR. Xudoyberdi To‘xtaboyev. Toshkent 2020
5. Остин Дж. Слово как действие /Дж.Остин// Новое в зарубежной лингвистике.-М.: Прогресс, 1986.- Вып. 17.- С.131.

ADABIYOTSHUNOSLIK

6. PRAGMALINGVISTIKA ASOSLARI. M.Hakimov, M.Gaziyeva Toshkent.2020
7. Pragmatics Language Workbooks. Peccei Jean Stilwell. 1999
8. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B.77-82.
9. Searle J. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
10. Celce-Mucia M. Rethinking the role of communicative competence in language . In: E.S. Alcon and M.P. Safant (Eds.). Intercultural Language Use and Language Learning. – Springer, 2007. - 41-47 pp.
11. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человеческого рода // Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков. – Составил В.А. Звегинцев. –М.: Госучпедгиз, 1956.]
12. Ishihara N. & Cohen A. Teaching and Learning Pragmatics: Where Language and Culture Meet. – London: Pearson, 2010. – 370 p.